




# GEPATIT B

TEKSHIRUVDAN O'TING. EMLASH OLING.





# Mundarija

Gepatit B (Gep B) va jigaringiz | 1

Tekshiruvdan o'ting: Gep B holatingizni biling | 5

Emlash oling: O'zingizni va boshqalarni  
himoya qiling | 8

Qarov oling va davolaning | 8

Gepatit B bilan yashash | 10

Homiladorlik, bolalar va hepatit B | 14


Ma'lumotlar va resurslar | 16

# Gepatit B (Gep B) va jigaringiz

Gepatit jigarning yallig'lanishini anglatadi. Jigaringiz ko'p usullarda sizning sog'lom bo'lishingizni ta'minlaydi. U tanangizdan toksinlarni chiqarib tashlaydi va ovqatdagi ozuqaviy moddalarni energiyaga aylantiradi.

Gepatit B salomatlik bilan bog'liq jiddiy muammolarga, jumladan jigar jarohatlanishi, jigar yetishmovchiligi, jigar saratoni va bevaqt o'llimga olib kelishi mumkin. Gepatitning har xi turlari mavjud. Gepatit B jigarni kasallovchi va jigarga hujum qiluvchi gepatit B viruslari tufayli yuzaga keladi.

Xavfsiz vaksina bilan gepatit B ning oldini olish mumkin va jigarning jiddiy zararlanishining yuzaga kelishini sekinlashtirish yoki to'xtatish uchun uni davolash mumkin. Gepatit B bilan yashovchi kishilar uzoq va sog'lom hayot kechirishlari mumkin.



Nyu-York shahridagi (NYC)

**241 000** kishi gepatit B bilan yashayapti.



Amerika Qo'shma

Shtatlaridagi **2,2 million** kishi gepatit B bilan yashayapti.

## Gepatit B qanday yuqadi?

Gepatit B bir odamdan boshqa odamga qon, urug' va qin suyuqligi orqali o'tishi mumkin. Gepatit B ning yuqish yo'llaridan ayrimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bola tug'ilishi vaqtida; gepatit B bilan yashovchi homilador ayol gepatit B ni chaqalogsiga o'tkazishi mumkin.
- gepatit B bilan yashaydigan odam bilan prezervativ yoki tish prokladkalari singari jismoniy to'siqsiz jinsiy aloqa qilish.
- Insulin, glyukoza monitorlari, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, steroidlar, tatuirovka yoki akupunktur kabi tibbiyot yoki inyeksiya uskunalarini birgalikda yoki qayta ishlatish.
- Ustara, tish cho'tkasi yoki qon, urug' yoki qin suyuqligiga tegishi mumkin bo'lgan narsalar kabi shaxsiy qarov vositalaridan birgalikda foydalanish.

## Tasodifiy tegib ketish xavfsiz

Gepatit B bilan yashayotgan kishilar ishdan, maktabdan, o'ynashdan yoki bola qarovidan mahrum qilinmasligi kerak.

Siz quyidagilar orqali gepatit B ni tarqatmaysiz:

- Ovqatlanish anjomlari, suv ichish stakanlari, suv yoki ovqatni baham ko'rish
- Aksirish, yo'talish, o'pish, quchoqlash yoki qo'l berib ko'rishish



## Gepatit B fazalari

**O'tkir gepatit B** yangi infeksiyadir. Gepatit B bilan og'rigan katta yoshlilarning ko'pchiligi davolashsiz infeksiyaga qarshi kurasha oladi. Agar siz o'tkir bosqichda gepatit B ga qarshi kurashsangiz, sizda immunitet hosil bo'ladi, bu sizning gepatit B ni yuqishidan himoyalanganligingizni anglatadi. Chaqaloqlar, bolalar yoki OITV bilan yashaydigan kishilar kabi immun tizimi kuchsiz bo'lgan kishilarning infeksiyaning o'tkir bosqichida gepatit B ni yengishlari ehtimoli kamroq.



**Surunkali gepatit B** tana virusni olti oy ichida chiqarib tashlay olmagan hollarda rivojlanuvchi doimiy yoki butun umr davomida bo'luvchi infeksiyadir. Surunkali gepatit B bilan yashayotgan kishilarning ko'pchiligi uni chaqaloqlik yoki juda yoshlik davrlarida yuqtirib olganlar.

## Gepatit B simptomlari

O'tkir gepatit B ning belgilari va simptomlari istima, toliquvchanlik, ishtahaning yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, qorin og'rig'i, to'q rangdagi siyidik, axlatning kulrang bo'lishi, bo'g'in og'rig'i yoki sariq kasalligi (teri yoki ko'zlarning sariq rangga kirishi) kabilarni o'z ichiga oladi. Bu simptomlar odatda bir necha haftadan keyin yo'qoladi.


Gepatit B bilan og'rigan ko'pchilik kishilar bir necha o'n kun davomida hech qanday simptomga ega bo'lmaydilar va o'zlarining kasalliklaridan bexabar bo'lishlari, biroq baribir virusni tarqatishlari mumkin. Simptomlar paydo bo'lganida ular odatda jigar o'z ishini boshqa bajara olmaydigan darajadagi xavfli jigar kasalligining belgisi bo'ladi. Gepatit B yoki yo'qligini bilishning yagona yo'li test topshirishdir.



## Surunkali hepatit B sog'liqqa qanday ta'sir qiladi

Surunkali hepatit B bilan og'rigan kishilarda jigarning jiddiy zararlanishi, jumladan kesilishlar va fibroz (jigarning o'rtacha darajada zararlanishi) va jigar sirrozi (jigarning o'tkir zararlanishi) rivojlanishi mumkin. Jigarning zararlanishi odatda sekin, 20 yildan 30 yilgacha bo'lgan davrda yuz beradi.

Surunkali hepatit B bilan yashayotgan kishilar kasallikning istalgan bosqichida jigar saratoni xavfi ostida bo'ladilar va ular har olti oyda bir marta jigar saratoni bo'yicha tekshiruvdan o'tib turishlari kerak.



# Tekshiruvdan o'ting: hepatit B holatingizni biling

Agar siz xavf ostida bo'lsangiz, sog'liqni saqlash xizmatlari ta'minotchisidan hepatit B ga testdan o'tkazishini so'rang.

## Siz hepatit B xavfi ostidamisiz?

Quyidagi savollardan birortasiga javob "Ha" bo'lsa, hepatit B ga testdan o'ting:

- Sizni tuqqan shaxs siz tug'ilganingizda hepatit B bilan yashayotganmidi?
- Siz yoki ota-onangiz hepatit B xavfi baland bo'lgan mamlakatda tug'ilganmi? (Keyingi sahifadagi ro'yxatga qarang.)
- Sizning jinsiy sheringingiz (sheriklaringiz) hepatit B bilan yashayaptimi?
- Siz erkak bilan jinsiy aloqa qiladigan erkakmisiz?
- Hepatit B bilan yashayotgan shaxs bilan birga yashaysizmi?
- Sizda OITV ga egamisiz?
- Siz biror marta narkotik moddalarni inyeksiya qilganimisiz yoki biror-bir narkotik modda qabul qilish jihozini (ignalalar, pishirgichlar, paxta, so'rg'ichlar yoki chayish suvi kabilarni) baham ko'rganmisiz?



# Gepatit B qayerda ko'p tarqalgan

Gepatit B quyida sanab o'tilgan mamlakatlarda\* juda keng tarqalgan. **Agar siz ushbu ro'yxatdagi mamlakatda tug'ilgan bo'lsangiz**, gepatit B ga testdan o'tishingiz kerak.\*\*

## AFRIKA MINTAQASI

Seyshel orollaridan boshqa barcha mamlakatlar

## AMERIKA MINTAQASI

Beliz, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, Ekvador, Salvador, Fransuz Gvianasi, Gaiti, Gonduras, Yamayka, Peru, Puerto-Riko, Surinam, Braziliya qismlari, janubiy Kolumbiya, shimoliy Boliviya, Shimoliy Amerikaning tub aholisi

## SHARQIY O'RTA YER DENGIZI VA JANUBI-SHARQIY OSIYO MINTAQALARI

Bangladesh, Butan, Jibuti, Falastin (G'azo sektori), Hindiston, Quvayt, Liviya, Myanma, Ummon, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Somali, Shri-Lanka, Sudan, Suriya, Tayland, Tunis, Birlashgan Arab Amirliklari, Yaman

## YEVROPA MINTAQASI

Albaniya, Ozarbajon, Belorussiya, Bolgariya, Xorvatiya, Kipr, Gruziya, Italiya, Qozog'iston, Kosovo, Qirg'iziston, Moldova, Ruminiya, Rossiya, Serbiya, Tojikiston, Turkiya, O'zbekiston

## G'ARBIY TINCH OKEANI MINTAQASI

Bruney Darussalam, Kambodja, Xitoy, Fidji, Kiribati, Laos, Marshall orollari, Mikroneziya, Mo'g'uliston, Nauru, Yangi Zelandiya, Niue, Palau, Papua-Yangi Gvineya, Filippin, Janubiy Koreya, Samoa, Singapur, Solomon orollari, Taiti, Tonga, Tuvalu, Vanuatu, Vietnam

\* Surunkali gepatit B ning tarqalishi (gepatit B ga yangi tashxis qo'yilgan va u bilan yashayotgan odamlar soni) 2% dan ko'proq bo'lgan mamlakatlar

\*\* Jahon sog'lioni saqlash tashkiloti mintaqalari

## Gepatit B ga test natijalaringizni tushunish

Sizning gepatit B bilan og'iganligingizni tasdiqlash uchun sog'liqni saqlash xizmatlari ta'minotchisi ushbu testlardan ayrimlarini o'tkazishi mumkin.

Natijalar	Testlar			Natijalarning ma'nolari	Keyingi qadamlar
	GEPATIT B yuza antigeni (HBsAg)	Gepatit B yuza anti-tanachasi (anti-HBs)	B geppatiti yadro antitanachasi (anti-HBc)		
	-	-	-	Gepatit B infeksiyasi yoki immuniteti yo'q. Gepatit B xavfi ostida.	Emlash oling.
	-	+	+	Gepatit B infeksiyasini yengishdan rivojlangan immunitet. Sog'liqni saqlash xizmatlari ta'minotchisiga o'zingizning ilgari gepatit B bilan og'iganligingizni ma'lum qiling.	Vaksina talab qilinmaydi.
	-	+	-	Gepatit B ga qarshi emlashlar seriyasini yakunlaganlikdan hosil bo'luvchi immunitet.	Vaksina talab qilinmaydi.
	+	-	+	Hozirda gepatit B bilan yashayapti.	Gepatit B ni davolovchi shifokorda davolaning. Ko'proq testdan o'tkazish talab qilinadi.
	-	-	+	Natijalar aniq emas — ilgari yoki hozirda infeksiya yuqqan bo'lishi mumkin.	Gepatit B ni davolovchi shifokorda davolaning. Ko'proq testdan o'tkazish talab qilinadi.

- manfiy test natijasini bildiradi

+ musbat test natijasini bildiradi

# Emlash oling: O'zingizni va boshqalarni himoya qiling

Agar siz gepatit B bilan og'rimagan bo'lmasangiz va sizda immunitet bo'lmasa, Gepatit B ning oldini olish uchun emlash oling. Gepatit B ga qarshi vaksina ikki yoki uch dozali seriyada keladi va u xavfsiz hamda samaralidir.

## Quyidagi hollarda sizda gepatit B ga qarshi immunitet mavjud:

- Siz ilgari gepatit B ta'siriga uchragansiz, biroq tanangiz virusni yo'qotib yuborgan. Siz buni faqatgina gepatit B ga testdan o'tish orqaligina bilishingiz mumkin.
- Siz muvaffaqiyatlari tarzda emlangansiz. Sog'lijni saqlash xizmatlari ta'minotchisidan emlash sizda natija bergenligi yoki yo'qligini tekshirishni so'rang.

## Qarov oling va davolaning

Gepatit B ni davolash tajribasiga ega bo'lgan sog'lijni saqlash xizmatlari ta'minotchisidan tibbiy muolaja olish muhimdir. Gepatit B salomatligingizga qanday ta'sir qilayotganligini bilish uchun sog'lijni saqlash xizmatlari ta'minotchisi quyidagi kabi qo'shimcha testlarni o'tkazishi mumkin:

- **Gepatit B DNK testlari** qoningizdagi gepatit B virusi miqdorini aniqlash uchun.
- **Jigarning ishlashini tekshirish testlari** jigar yallig'lanishi miqdorini o'lchash uchun.
- **Jigarni ultratovushda o'rganish yoki fibroskan** jigarning shakli, o'lchami yoki qattiqligi tasvirini taqdim etish orqali jigarning zararlanganligi yoki yo'qligini aniqlash.
- **Jigar saratoni skriningi** qon tahlillari va ultratovushdan foydalangan holda.



Gepatit B bilan yashayotgan kattalarga har olti oyda jigar saratoni kasalligiga skriningdan o'tib turish tavsiya qilinadi.



Hattoki o'zingizni sog'lom his qilsangiz ham gepatit B jigaringizni shikastlayotgan bo'lishi mumkin. Jigaringiz salomatligi va gepatit B holatingizni tekshirish uchun gepatit B ni davolash tajribasiga ega shifokorga boring.

## Sog'liqni saqlash xizmatlari ta'minotchisidan gepatit B ni davolash haqida so'rang

Gepatit B viruslariga qarshi dorilar viruslarning jigarni zararlashini sekinlashtirishi yoki to'xtatishi mumkin.

**Agar siz gepatit B ga qarshi davolanayotgan bo'lsangiz,** jigarning virus tufayli zararlanishining oldini olish uchun dorilaringizni tavsiya qilingani kabi qabul qiling. Sog'liqni saqlash xizmatlari ta'minotchisi bilan maslahatlashmasdan turib dorilaringizni qabul qilishni to'xtatmang.

**Sog'liqni saqlash xizmatlari ta'minotchisidan keyingi qadamlar va gepatit B bilan yashash haqidagi ushbu muhim savollarni so'rang:**

- Gepatit B DNK virus yuklanmam qanday?
- Jigarim qanchalik darajada zararlangan?
- Gepatit B virusiga qarshi davolanishim kerakmi?
- Jigarim salomatligini himoya qilish uchun gepatit A ga qarshi emlanishim kerakmi?
- Jigarimni har kuni himoya qilish uchun nima qilishim kerak? Nimalarni qilmasligim kerak?
- Boshqa dori-darmonlarni, jumladan retseptsiz olinadigan dori-darmonlar, asetaminofen (Tylenol), o'tli dorilar, vitaminlar va qo'shimchalarni qabul qilish men uchun xavfsizmi?
- O'zim birga yashaydigan yoki men jinsiy aloqada bo'ladigan kishilarni gepatit B dan qanday himoya qila olaman? Ular qachon testdan o'tishlari va emlanishlari kerak?

# Gepatit B bilan yashash

Gepatit B bilan yashovchi kishilar uzoq va sog'lom hayot kechirishlari mumkin. Quyidagilar salomatligingizni himoya qilish usullaridan ayrimlaridir.

## **Spirtli ichimliklar ichmang.**

Spirtli ichimliklar jigaringizni zararlaydi. Spiritli ichimliklarni umuman ichmaslik salomatligingiz uchun eng xavfsizidir. Buni kamaytirish ham yordam beradi. Spiritli ichimliklar iste'mol qilishni kamaytirishga yordam berishi uchun sog'liqni saqlash xizmatlari ta'minotchisidan so'rang yoki ko'proq qo'llab-quvvatlash xizmatlari, jumladan NYC Well xizmatini olish uchun Ma'lumotlar va resurslar bo'limini o'qib chiqing.

## **Tabiiy dorilar yoki retseptsiz olinuvchi dorilarni qabul qilishdan avval shifokoringiz bilan maslahatlashing.**

Retseptsiz olinadigan dori-darmonlar, o'tli dorilar, vitaminlar va qo'shimchalarni qabul qilishdan avval shifokoringiz bilan maslahatlashing, chunki ular jigaringiz uchun xavfli bo'lishi mumkin. Bular asetaminofen, temir yoki boshqa tabiiy qo'shimchalar va vitaminlarni o'z ichiga oladi. Ular sizning jigaringizga zarar yetkazishi yoki gepatit B ni yomonlashtirishi mumkin bo'lgan dorilarni qabul qilmasligingizga yordam bera olishlari uchun shifokorlaringizga gepatit B bilan og'iganligingizni aytинг.

## **Jigarning yog' bosishining oldini oling va surunkali kasallikni nazorat qiling.**

Yog'li jigar, jigarda ortiqcha yog'larning to'planishi jigarning zararlanishiga olib kelishi mumkin. Spiritli ichimliklarni ortiqcha iste'mol qilish yoki diabet yoxud semizlikka ega bo'lish gepatit B ni yanada yomonlashtirishi mumkin bo'lgan jigarning yog'lashishiga olib kelishi mumkin. Shifokoringizdan qanday qilib yog' bosishining oldini olish va surunkali kasalliklarni nazorat qilishni so'rang.

## **Gepatit A ga qarshi emlash oling.**

Gepatit A jigaringizni zararlashi mumkin bo'lgan boshqa virusdir. Gepatit B bilan yashayotgan odamlar ular gepatit A ni yuqtirgan hollarda tezroq va yanada o'tkirroq yoki o'limga olib keluvchi kasallikka chalinishlari mumkin.

## **Zararlarni kamaytiruvchi va xavfsizroq jinsiy aloqani sinab ko'ring.**

Qon orqali o'tishining oldini olish uchun tibbiy jihozlar yoki giyohvandlik moddalarini qabul qilish asboblaridan birgalikda yoki qaytadan foydalanmang va jinsiy aloqa vaqtida fizik to'siqlardan foydalaning.

### **Ko'mak oling**

Gepatit B bilan tashxislanishdagi hissiyotlaringizni shifokoringiz va o'zingiz ishonadigan kishilar bilan baham ko'ring.

Gepatit B bilan yashash har doim ham oson bo'lmasligi mumkin, biroq shifokoringiz va o'zingiz ishonadigan kishilar bilan suhbatlashish hissiyotlaringizni boshqarish va o'zingizga zarur ko'makni olishga yordam berishi mumkin. 800-465-4837 raqami orqali Amerika Jigar jamg'armasiga qo'ng'iroq qilish orqali gepatit B bilan yashash to'g'risida ko'mak oling. Ko'proq ma'lumotlar olish uchun Ma'lumotlar va resurslar bo'limini o'qib chiqing.



Gepatit B bilan yashayotgan boshqa kishilar bilan ushrashish va ular haqida bilish uchun [hepb.org/research-and-programs/patient-story-telling-project](http://hepb.org/research-and-programs/patient-story-telling-project) saytiga tashrif buyuring.

## Boshqalarni gepatit B dan himoya qiling

Gepatit B ni boshqalarga yuqtirishingiz mumkinligi tufayli siz uyingizdagilar, o'zingiz jinsiy aloqa qiladigan kishilar va o'zingiz ignalar, tibbiy yoki inyeksiya jihozlarini baham ko'radigan kishilarni testdan o'tish va gepatit B ga qarshi emlash olishga undashingiz kerak.

- Tibbiy asboblarni baham ko'rmang yoki ulardan qayta foydalanmang. Tatuirovka qilish, igna bilan davolash yoki inyeksiya qilish (masalan, insulin, steroid kabilar) uchun doimo yangi yoki sterillangan jihozlardan foydalanimishiga ishonch hosil qiling.
- Giyohvandlik moddalarni qabul qilish vositalarini baham ko'rmang yoki ulardan qayta foydalanmang. Faqat yangi yoki sterillangan jihozlar yoki moslamalardan, jumladan ignalar, shpritslar, paxta, stakanlar, bog'lagichlar, tig'lar, keskichlar, chayish suvi, pishirgichlar, so'rg'ichlar yoki trubkalardan foydalaning.
- Sherikingiz to'liq emlangunicha yoki gepatit B ga qarshi immunitetga ega bo'lgunicha jinsiy aloqa qilish vaqtida prezervativ yoki tish prokladkalari kabi fizik to'siqlardan foydalaning.
- Ign, ustara, tish cho'tkasi yoki qon, urug' yoki qin suyuqligiga tegishi mumkin bo'lgan narsalar kabi shaxsiy qarov vositalaridan birgalikda foydalanmang.
- Kesilgan joylar va ochiq yaralarni bog'lamlar bilan yoping va boshqalarning qoningizga tegmasliklariga ishonch hosil qiling.
- Qoningiz yoki urug' yoki qin suyuqligi kabi tana suyuqliklariga tekkandan keyin qo'llaringizni yaxshilab yuvning.
- Har qanday to'kilgan qonlarni bir bo'lak oqartirgich va to'qqiz bo'lak suvdan iborat oqartirgich eritmasi bilan tozalang.

## **Agar siz yoki siz biladigan kimdir yaqinda gepatit B ga chalingan bo'lса, gepatit B ga chalinishdan keyingi profilaktika vositalarini oling.**

Darhol sog'liqni saqlash xizmati ta'minotchingizga qo'ng'iroq qiling va virusning tanadagi tarqalishini to'xtatishga yordam berishi mumkin bo'lgan dori vositasi — gepatit B immunoglobulinini haqida so'rang. Samarali bo'lishi uchun u kasallik yuqqanidan keyin yetti kun davomida berilishi kerak.



# **Homiladorlik, bolalar va gepatit B**

## **Homiladorlik va gepatit B**

Homilador bo'lgan barchadan homiladorlik davrida gepatit B ga test topshirish talab qilinadi. Agar siz homilador va gepatit B bilan yashayotgan bo'lsangiz, qanday qilib tug'ish vaqtida gepatit B ning farzandingizga o'tishining oldini olish bo'yicha shifokorlarining bilan maslahatlashing.

Gepatit B ning oldini olish uchun chaqalog'ingiz tug'ilganidan keyinoq dargol, tug'ruqdan keyingi 12 soat ichida bitta doza gepatit B ga qarshi vaksina (tug'ilish dozasi) va bitta doza gepatit B immunoglobulini olishi kerak. Buni albatta tug'ish rejangizga kirititing.

Chaqalog'ingiz hayotining dastlabki to'qqiz oyida gepatit B ga qarshi emlashlar seriyasini yakunlashi kerak. Ularning immunitet hosil qilganliklariga ishonch hosil qilish uchun bolalar gepatit B ga qarshi emlashlar seriyasini yakunlaganlardan keyin gepatit B ga testdan o'tishlari kerak. Testdan o'tkazish 9 oylikka to'lishlardan avval yakunlanmasligi kerak.

**Sog'liqni saqlash xizmatlari  
ta'minotchingizdan homiladorlik  
davrida va tug'ishdan keyin  
gepatit B holatingiz va jigaringiz  
salomatligini muntazam  
tekshirib turishini so'rang.**



Agar sizga ko'krak bilan emizish yoki oziqlantirishdan yordam yoki ko'mak kerak bo'lsa, chaqalog'ingizga qarayotgan shifokorga aytинг. wicstrong.com saytiga tashrif buyurishingiz yoki 800-522-5006 raqami orqali Sog'lom o'sish ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilishingiz ham mumkin.

**Sutda qon bo'lmas ekan, gepatit  
B ko'krak suti orqali tarqalmaydi.  
Og'zingizdagi ovqatni bermang.  
Chaqaloqlar uchun ovqatni  
chaynab bermang.**



Homilador yoki emizikli ona bo'lganingizda sizda gepatit B virusiga qarshi dorilar haqida savollar mavjud bo'lsa, shifokoringiz bilan maslahatlashing. Sog'liqni saqlash xizmatlari ta'minotchisiga aytmasdan turib dorilariningizni qabul qilishni to'xtatmang.

## Bolalar va gepatit B

Emlash olish gepatit B ning oldini olishning eng yaxshi yo'lidir. Barcha bolalar gepatit B ga qarshi emlashlar seriyasini tugatishlari va ularda immunitetning mavjudligiga ishonch hosil qilish uchun testdan o'tishlari kerak. Agar farzandingiz gepatit B bilan kasallangan bo'lsa, gepatit B ni davolash tajribasiga ega shifokorda davolanish juda muhimdir.

Agar farzandingiz gepatit B bilan og'rigan bo'lsa, buni o'qituvchilar, kundalik qarovchilar, boshqa bolalar yoki ularning ota-onalariga aytishingiz shart emas. Yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish uchun barcha umumiyligi ehtiyot choralariga amal qilishi kerak.

# Axborot va resurslar

## **Gepatit B haqida ko'proq ma'lumotlar olish.**

**Nyu-York shahar Sog'liqni saqlash va ruhiy gigiyena boshqarmasi**

**311** raqamiga qo'ng'iroq qiling va "gepatit B" haqida so'rang yoki **nyc.gov/health/hepb** saytiga tashrif buyuring.

## **Gepatit B jamg'armasi**

215-489-4900 raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki hepb.org saytiga tashrif buyuring. Ma'lumotlar bir necha tillarda beriladi.

## **Amerika Jigar jamg'armasi**

800-465-4837 raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki liverfoundation.org saytiga kiring.

## **Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari**

cdc.gov/knowhepatitisb saytiga tashrif buyuring. Ma'lumotlar bir necha tillarda beriladi.

**Yaqin-atrofingizda gepatit B ga qarshi arzon qarov topish Nyu-York shahar Sog'liqni saqlash boshqarmasi**

**nyc.gov/health/hepb** saytiga tashrif buyuring.

**Nyu-York shahar davlat kasalxonalarida  
gepatit B ga qarshi arzon tibbiy davolanish olish**

**nyc.gov/health/map** saytiga tashrif buyuring.

## **NYC Well**

NYC Well — bu ruhiy salomatlik va giyohvandlik moddalariga o'rganib qolish masalalarida yordam olish uchun sir tutiluvchi bepul liniya. Xizmatdan sutkasiga 24 soat, haftasiga yetti kun davomida 200 dan ortiq tilda foydalanish mumkin.

- 888-692-9355 raqamiga qo'ng'iroq qiling.
- 65173 raqamiga "WELL" matnini yuboring.
- Tashrif buyuring [nyc.gov/hycwell](http://nyc.gov/hycwell).

## **Tibbiy sug'urta topish**

Arzon yoki bepul tibbiy sug'urta uchun qanday qilib ro'yxatdan o'tish haqida maslahatchi bilan bepul gaplashing, [nyc.gov/health](http://nyc.gov/health) saytiga kiring va qidiring, "CoveredNYC" matnini 877-877 raqamiga yuboring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling.

## **Boshqa imtiyozlar va dasturlarni topish**

Qo'shimcha xizmatlarni topish uchun [access.nyc.gov](http://access.nyc.gov) saytiga kiring. Ma'lumotlar bir necha tillarda beriladi.

## **Gepatit B hamjamiyati koalitsiyasi**

Nyu-York shahar Sog'liqni saqlash boshqarmasining hamjamiyat koalitsiyasi haqida ko'proq bilish uchun [hepfree.nyc](http://hepfree.nyc) saytiga kiring.



